

O'zbekiston Prezidenti Butunxitoy xalq vakillari kengashi delegatsiyasini qabul qildi




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-may kuni Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisining o'rinbosari, bosh kotibi Van Chen rahbarligidagi Butunxitoy xalq vakillari kengashi delegatsiyasini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashda parlamentlararo hamkorlik muhim o'rin tutishini alohida ta'kidladi.

Suhbat chog'ida Prezidentimizning yaqinda Xitoy Xalq Respublikasiga oliy darajadagi tashrifi davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, chunonchi, savdo, investitsiya va madaniy aloqalarni jadallashtirish, shuningdek, birodarlashgan qadimiy Samarqand va Sian, Buxoro va Loyan shaharlari o'rtasida sayyohlar almashishga alohida e'tibor qaratildi.



Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisining o'rinbosari, bosh kotibi Van Chen 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy islohotlarni yuqori baholadi.

Van Chen Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi va O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi strategik sheriklikni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan aniq dastur va loyihalarni ilgari surish maqsadida ikki mamlakat parlamentlariaro keng ko'lamli hamkorlikka Xitoy tomonining manfaatdorligi va tayyorligini ta'kidladi.

O'ZA